



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA BADIY ASARLARNI IFODALI O'QISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

Tirkasheva Xumora Nurali qizi

O'zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti

1-kurs magistratura talabasi

tirkashevax@gmail.com

1st year graduate student of Uzbekistan

-Finland Pedagogical Institute

Tirkasheva is the daughter of Khumora Nurali

tirkashevax@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14921251>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 15-Fevral 2025 yil

Ma'qullandi: 20-Fevral 2025 yil

Nashr qilindi: 25-Fevral 2025 yil

KEYWORDS

Boshlang'ich sinf, badiiy asar, ifodali o'qish, o'quvchi, ko'nikma, ovoz, nafas, pauza, talaffuz, nutq, adabiyot.

ABSTRACT

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy asarlarni ifodali o'qish ko'nikmasini shakllantirish yo'llari yoritilgan. Ifodali o'qish malakalarini shakllantirishning turli-tuman yo'llari bor. Buning uchun o'quvchining yosh xususiyatlariga ham alohida diqqat qilish kerak. O'quvchi badiiy asarni qanchalik ifodali o'qisa, uning mazmunini ham tez anglab oladi.

Mustaqilligimizning sharofati tufayli yosh avlod tarbiyasiga alohida e'tibor berilmoqda. Badiiy adabiyot ta'lim-tarbiyaning, yoshlar kamolotini ta'minlashning muhim omili ekan, uning targ'ibotini kuchaytirish zarur. Badiiy adabiyot ma'naviy tarbiyaning asosiy qurolidir. Bu haqda birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov shunday ta'kidlaydilar: "Insonni, uning ma'naviy olamini kashf e'tadigan yana bir qudratli vosita borki, u ham bo'lsa, so'z san'ati, badiiy adabiyotdir. Adabiyotning insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilarning esa inson ruhining muhandislari, deb ta'riflanishi bejiz emas, albatta"¹. Ana shu inson ruhining muhandislari yaratgan asarlarni tushunib, mohiyatiga yetib, qadrlab o'qishni o'rganish yosh avlod komilligi yo'lida muhim rol o'ynaydi. Buning uchun ifodali o'qishni ham atroflicha o'rgatish o'ziga xos o'ringa ega.

O'quvchini badiiy asarga qiziqtirish jaroyonida ifodali o'qishning o'rni beqiyos. Ifodali o'qish o'quvchida zavq, adabiyotga mehr hosil qilish bilan birga uning ruhini oziqlantiradi, ma'nau boyishiga, go'zallikni qadrlashiga ko'mak beradi. Shu bois nafaqat maktab, balki bog'cha davridayoq bolalarni asarlarni ifodali o'qishga o'rgatish lozim

Asosiy qism:

Ifodali o'qish san'ati o'tmish zamonlarda og'zaki ijodda qanday ahamiyat kasb etgan bo'lsa, yozma adabiyotda ham shu qadar muhim o'rin tutadi. Zero, badiiy adabiyotning estetik ta'sir kuchi ifodali o'qish jarayonida yanada yorqinroq namoyon bo'ladi.

Ifodali o'qish muayyan intonatsiya yordamida asarning g'oyasi va jozibasini to'g'ri, aniq yozuvchi niyatiga mos ravishda ifodalay bilishdir. Ifodali o'qishning asosiy vazifasi muayyan matnning mazmuni va emotsionalligini ohang orqali tinglovchiga yetkazib berishdir.

Ifodali o'qish, ayniqsa, asaming g'oyaviy mazmunini chuqur tushinishda, badiiy

xususiyatlarini aniqlashda katta ahamiyatga ega. Badiiy asarlamifodali o'qish inson ongi va hissiyotiga ta'sir etib, axloqiy-estetik tuyg'ularini shakllantirishga, ma'naviy olamini boyitishga xizmat qiladi.

Ifodali o'qish so'zlarni to'g'ri talaffuz qilib, asar mazmunini tushunib, asarda ifoda etilgan his tuyg'uni, qahramonlarning ichki kechinmalarini, ruhiy kayfiyatlarini anglab o'qish demakdir. Bolalar ta'sirchan bo'ladilar. O'qituvchi asarni his-hayajon bilan hikoya qilib berishi, uning bolalarga chuqur ta'sir etishiga erishishi, ayrim hollarda yodlarida yaxshi saqlab qolishlariga muvaffaq bo'lishi, asar mazmuni va unda ishtirok etuvchilarning ishlari ular uchun xuddi hayot qoidasidek tuyuladi. Asar mazmunini o'quvchilarga to'la anglatish uchun o'qituvchining o'zi uni ifodali o'qish va hikoya qilib berishga puxta tayyorgarlik ko'rishi zarur.

Ifodali o'qish ongli o'qishning ko'rsatkichidir, chunki matnning ma'nosini anglab o'qiy olgan o'quvchi, albatta, ifodali o'qish malakalarini ham egallagan bo'ladi. Ongli o'qish ifodali o'qish malakalarini o'stirish va mustahkamlashga yordam beradi. Ongli, to'g'ri va ravon o'qish malakasi hosil qilingani sari, ta'sirli o'qish malakasi ham o'sib boradi. Ta'sirli o'qish o'quvchida his-tuyg'u uyg'otishga, voqea hodisalarni tasavvur etishga, estetik zavq bag'ishlashga xizmat qiladi.

Ifodali o'qishda olib boriladigan ishlarning mazmun va mahorati 4 asosiy shart bilan izohlanadi:

- o'quvchilar o'qiganlari yuzasidan nimalarni aytib berishi (qanday fikrni, qanday mazmunni bayon etishi) yaxshi tushunib olishlari zarur;
- o'quvchilar asarda o'qiganlari yuzasidan jonli va ishonarli munosabatda bo'lishlari lozim;
- adabiy asar o'quvchilarning ma'lum maqsadga qaratilgan holda o'qishlarini, mazmunni bayon etishdagi moyilliklarini (fikir, misol, tabiatning tasviri) taqozo qiladi;
- eshituvchilarning matnni o'qiyotgan o'quvchi fikrini tushunib bilishi talab etiladi.

Bularning barchasi ifodali o'qishning o'sib borishiga yordam beradi.

To'g'ri, g'oyaviy-badiiy jihatdan mukammal yaratilgan har qanday asar og'zaki ifodali nutqsiz, ovoz chiqarmasdan mustaqil o'qilganda ham o'zining axloqiy-estetik jihatdan ta'sir kuchini yo'qotmaydi, insonni tarbiyalash vazifasi kamayib qolmaydi. Lekin ifodali o'qish jarayonidagi maftunkor ohang, xilma-xil ovoz tovlanishlari, jozibador intonatsiya kabi vositalar badiiy asaming emotsional ta'sir kuchini yanada oshiradi, eshituvchiga beqiyos zavq-shavq bag'ishlaydi.

Xo'sh, ifodali nutqni o'rganish uchun nimalarga e'tibor berish kerak? Ifodali o'qish o'zi nima? Sodda qilib aytganda, "Ifodali o'qish adabiy asarni tushunarli va ta'sirchan o'qish demakdir. Bu o'qish san'ati yod olingan matnni ifodali o'qishni ham o'z ichiga oladi. Ifodali o'qishda fikrlami yanada silliq, aniq, go'zal shaklda talqin etish uchun emotsional vositalardan unumli foydalaniladi. Ifodali o'qishning badiiy emotsional bo'lishi uchun o'quvchi-ijrochi asar mazmuni, g'oyaviy-badiiy jihatlari haqida tasavvurga ega bo'lishi lozim"²

Ifodali o'qishning o'ziga xos xususiyati shundaki, u insonda tuyg'u va kayfiyatlar hosil qiladi, aniqrog'i, voqelikning his-tuyg'uli qiyofasini yaratadi. Ifodali o'qish jarayonida asar voqealari "jonlanadi", qahramonlar "tilga kiradi". O'quvchi bir vaqtning o'zida ham muallif, ham qiyofa (obraz) yaratuvchi, ham ijrochi sifatida namoyon bo'ladi. Demak, ifodali o'quvchi ma'lum darajada aktyorlik san'atidan ham xabardor bo'lishi lozim.

Ifodali nutq san'atini o'rganishning muhim vositalardan biri badiiy asarlarni ko'proq mutolaa qilishdir. Asaming mazmun-mohiyati, qahramonlar xarakter xususiyati, maqsad va intilishlari chuqur o'rganilgandagina og'zaki talqinda asar ruhiga mos ohang va intonatsiya paydo bo'ladi. Badiiy asarlarni mutolaa qilish o'quvchining dunyoqarashini kengaytirish barobarida adabiy tilni puxta o'zlashtirishga, ifodali o'qish san'atini egallashga yaqindan yordam beradi.

Ifodali o'qish turli badiiy va amaliy matnlarni puxta o'zlashtirishning ma'lum metodlaridan biri sifatida o'qituvchi uchun kalit rolini bajaradi. Ifodali o'qish darslarda o'quvchilarning zerikishiga yo'l qo'ymaydi, aksincha faollashtiradi, badiiy asarlarga qiziqishini kuchaytiradi adabiyotga havas uyg'otadi. Ifodali o'qish va o'zaro nutqiy faoliyat jarayonida bolalarning adabiy talaffuz me'yorlari shakllanadi. O'quvchilar nutqining grammatik shakllarini to'g'ri qo'llash va to'g'ri talaffuz etish bolalar nutqining ravon, ifodali bo'lishiga yordam beradi. Ifodali o'qishda:

- a) nafasdan to'g'ri foydalana olish;
- b) adabiy til talaffuz normalarini yaxshi bilish;
- c) so'z, bo'gin va tovushni to'g'ri, aniq talaffuz etish;

Boshlang'ich o'quvchilarini ifodali o'qitishda asosan shu 3 qoidaga amal qilishi kerak. Boshlang'ich sinflarda ifodali o'qishga o'rgatish har bir o'quvchi so'zlarni to'g'ri talaffuz qila olish bo'g'inlarni to'g'ri ajrata olishi va normal tezlikda o'qishi orqali bola gapdagi asosiy mazmunini anglaydi. Demak, boshlang'ich sinflarda ifodali o'qish ko'nikmasini shakllantirish bu o'qituvchining mahoratli pedagog ekanligini anglatadi.

Ifodali o'qish boshlang'ich sinfda turli she'riy, prozaik, dialogik nutqlarni to'g'ri o'qish, ularning mazmuniga mos ohang, pauzalarni to'g'ri belgilash orqali amalga oshiriladi. Bolalar bularni nutqida ishlatishga harakat qiladi. O'quvchini o'rab turgan ijtimoiy muhit ham uning so'z boyligini oshirishda, ifodali o'qishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Bu o'qish o'qituvchi oldiga quyidagi talablarni qo'yadi:

- a) o'qituvchining o'zi ifodali o'qishni puxta egallagan bo'lishi lozim;
- b) o'quvchilarga ko'proq yod oldirishi zarur;
- d) o'qish uchun chinakam badiiy va mazmunan boy asarlardan parchalar tanlash kerak.

Maktab yoshidagi bolalar badiiy adabiyot namunalarini o'qish bilan, deklamatsiya qilish bilan ongli o'qish, ifodali o'qish san'atini egallay boshlaydilar. Asarni ifodali o'qish ham o'quvchilarni yuksak badiiy didli, estetik tarbiyali qilib, milliy qadriyatlarni singdirish ruhida tarbiyalab beradi. Ifodali o'qish o'quvchilarning ongi va hissiyotiga katta ta'sir etadi. Hissiyotga ta'sir etgan narsa esa kishi xotirasida bir umrga saqlanadi.

Badiiy asarlarni ifodali o'qish jarayonida to'g'ri nafas olishi juda katta ahamiyat kasb etadi. Nutq jarayonida nafas olishi me'yori buzilib, o'rinsiz pauzalar qilinsa, o'qilayotgan badiiy asar mazmuni mantiqan o'zgarib, muallif maqsadi tinglovchiga tushunarsiz bo'lib qoladi. Shu bilan birgalikda ifodali o'qish san'atida ovozning ahamiyati ham beqiyosdir. Ovoz o'zgarishi asar voqealarining kechishi bilan, qahramonlar xakteri va ruhiy holati bilan chambarchas bog'liqdir. Ifodali o'qish jarayonida ovoz asta-sekin ko'tarilsa maqsadga muvofiqdir, chunki dabdurustdan baqirib o'qishdan boshlash - qo'pollikdir. Ijroda ovozni asta-sekin ko'tarish foydali, chunki ovoz bundan kuchayadi. Ovoz o'zgarishi asar voqealarining kechishi bilan, qahramonlar xakteri va ruhiy holati bilan chambarchas bog'liqdir. Boshlang'ich sinflardagi o'qish darslarining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarni ifodali

o'qishga o'rgatishdir. Ifodali o'qish maktab sharoitida badiiy o'qish san'ati ibtidosi hisoblanib, uning metodikasi o'qish nazariyasiga asoslanadi. O'quvchilar o'z imkoniyatlariga yarasha o'qish san'atini egallab borishlari ko'zda tutiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda , boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy asarlarni ifodali o'qish ko'nikmalarini shakllantirishda o'qituvchining roli katta ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birgalikda badiiy asarlarni o'qish jarayonida nafasning, ovozning hamda pauzaning ahamiyati beqiyosdir.

Ifodali o'qish xalq san'atidir. Badiiy asar so'zlari to'g'ri, ma'nosini anglab talaffuz qilish, uning mazmunini atrofdagilarga yetkazish yo'lida folklor va uning ijrochilari yetarlicha xizmat qilib keldilar. Boshlang'ich sinflardagi o'qish darslarining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarni ifodali o'qishga o'rgatishdir. Ifodali o'qish maktab sharoitida badiiy o'qish san'ati ibtidosi hisoblanib, uning metodikasi o'qish nazariyasiga asoslanadi. O'quvchilar o'z imkoniyatlariga yarasha o'qish san'atini egallab borishlari ko'zda tutiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 136.
2. S. Inomxo'jayev, A. Zunnunov. Ifodali o'qish asoslari. - Toshkent: O'qituvchi, 1978. 58-bet.
3. Ziyoda Masharipova. Ifodali o'qish praktikumi. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti -2011y. 38- bet.
4. Oripov K., Obidova M. Ifodali o'qish, Toshkent: O'qituvchi, 1994.
5. Imomxo'jayev S., Zunnunov A. Ifodali o'qish asoslari, Toshkent: O'qituvchi, 1998. 236 b.
6. Ubayxojayeva R. O'quvchilarning ifodali oqish konikmalarini takomillashtirish. Boshlangich sinf oqituvchilari uchun qollanma. Toshkent: Kohinur, 1999.180 b.
7. www. google.uz
8. www. ziyonet.uz
9. www. uzsiense.uz
10. www. kitob.uz
11. www.arxiv.uz